

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KARYERA
STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH**

Djalolova Sevara Xolmurodovna

Samarqand viloyat pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada bo‘ljak o‘qituvchilarda kasbiy karyera strategiyalarini ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Unda karyera rejalashtirish, strategik fikrlash, kasbiy o‘zini anglash hamda kompetensiyalarni shakllantirish jarayonlari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinib, mazkur ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali yondashuvlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy tayyorgarlik, kasbiy ko‘nikma va malaka, o‘qituvchilik faoliyati, kasbiy karyera, karyerani loyihalash, gorizantal yo‘nalish, vertikal yo‘nalish.

**РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ РАЗРАБОТКИ СТРАТЕГИЙ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КАРЬЕРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

Аннотация: в данной статье освещены теоретические основы формирования и развития у будущих педагогов навыков разработки стратегий профессиональной карьеры. Рассматриваются процессы планирования карьеры, стратегического мышления, профессионального самопознания и формирования компетенций с научно-педагогической точки зрения, а также представлены эффективные подходы к развитию указанных навыков.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, профессиональные навыки и умения, педагогическая деятельность, профессиональная карьера, проектирование карьеры, горизонтальное направление, вертикальное направление.

**DEVELOPING FUTURE TEACHERS’ SKILLS IN DESIGNING
PROFESSIONAL CAREER STRATEGIES**

Annotation: this article highlights the theoretical foundations for the formation and development of career strategy planning skills in future teachers. It examines the processes of career planning, strategic thinking, professional self-awareness, and competency development from a scientific and pedagogical perspective, and presents effective approaches to enhancing these skills.

Keywords: professional training, professional skills and competencies, teaching activity, professional career, career planning, horizontal direction, vertical direction.

KIRISH. Insoniyat taraqqiyoti bilan bir qatorda barcha sohalarda kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari natijasida yuzaga kelayotgan sifat va tarkibiy o'zgarishlar har bir insondan, ayniqsa bo'lajak mutaxassislardan, o'z kasbiy faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish va muntazam rivojlantirib borishni talab qilmoqda. Ushbu jarayonlar shaxsning kasbiy karyerasiga nisbatan yangicha yondashuvni shakllantirishni, unga moslashishni hamda zamon talablariga uyg'un tarzda taraqqiy etishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Rivojlanib borayotgan O'zbekistonda ta'lim sohasiga davlat siyosati darajasida ustuvor e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim normativ-huquqiy asos bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni asosidagi Taraqqiyot strategiyasi, 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son hamda 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmonlari ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan kompleks islohotlarni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyera strategiyalarini shakllantirish ta'lim tizimining muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Bu jarayonda kompetensiyaviy yondashuv, refleksiya, o'z-o'zini baholash va individual rejalashtirish metodlari keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, uzluksiz ta'lim, mentorlik, amaliy mashg'ulotlar hamda innovatsion texnologiyalar orqali kasbiy rivoj ta'minlanib, maxsus dastur va treninglar asosida karyera ko'nikmalari rivojlantirilmoqda.

Tadqiqot jarayonida bir qator mualliflar karyerani pedagogik tadqiqotlar uchun qimmatli bo'lgan shaxsiy rivojlanish g'oyalari nuqtai nazaridan tadqiqot olib borganligiga guvoh bo'ldik.

Jumladan, X.Dessler [5] karyerani shaxsning kasbiy yo'li sifatida qaraydi va uning bu jarayondagi rivojlanishini ta'kidlaydi. V.A.Dyatlov [6] esa karyerani muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya, o'zini anglash, yutuq va fidoyilik, rasmiy pog'onalar bo'ylab ko'tarilish, o'zini boshqara olish va samaradorlik, ya'ni ijtimoiy e'tirof etilish bilan birga kechadigan muvaffaqiyatli o'zini namoyon qilish jarayoni sifatida ta'riflaydi. Karyera (mavqe) - bu xodimlarning o'z mehnat istiqboli to'g'risidagi subyektiv ravishda anglab yetilgan fikr-mulohazalari, o'zini namoyon qilish va mehnatdan qoniqish hosil qilishning kutilgan yo'llaridir. Insonning ishdan

tashqari hayoti karyeraga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi va bu karyeraning ajralmas qismi hisoblanadi. Karyera tushunchasi tashkiliy pog'onalar bo'ylab uzluksiz va doimiy ravishda yuqoriga ko'tarilishni anglatmaydi.

Karyera - bu insonning mehnat qilish bilan bog'liq hayoti mobaynidagi ish tajribasi va faoliyatini anglab yetilgan mavqei va xulq - atvoridir. V.Dyatlov[6]karyeraning ikki turi bo'ladi:

- kasb karyerasi;
- tashkilot ichidagi karyera.

Kasbiy karyera shu bilan ajralib turadiki, muayyan bir xodim o'zining kasbiy faoliyati jarayonida rivojlanishning turli bosqichlaridan o'tadi, ya'ni ta'lim olish, ishga kirish, kasb-hunar sohasida o'sish, o'ziga xos kasbiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash va pensiyaga chiqish.

Tashkilot ichidagi karyera - bu xodimning bir tashkilot doirasida rivojlanish bosqichlarining izchil almashinuvidir. Tashkilot ichidagi karyera ikkita asosiy yo'nalishda bo'ladi:

vertikal yo'nalish - tarkibiy pog'onaning yuqoriroq darajasiga ko'tarilishni anglatadi;

gorizontal yo'nalish - faoliyatning boshqa funksional sohasiga o'tkazishni yoki pog'onadagi muayyan xizmat rolini bajarishni nazarda tutadi. Karyerani rejalashtirish va amalga oshirishning asosiy vazifasi kasbiy va tashkilot ichidagi karyeralarning o'zaro ta'sirini ta'minlashdan iborat.

Yuqorida keltirilgan fikrlar bo'lajak o'qituvchida kasbiy bilimlarini rivojlantirish va yangiliklardan doimiy xabardor bo'lish zarurligini anglatadi.

Bunda insonning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyati, fikrlash tarzi, nostandart yechimlarga kelishi, ijodkorligi, yangi g'oyalarni yarata olish xislati va intuitsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

I.N.Dimuraning "Yosh o'qituvchilarning kasbiy chidamliligini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari" (qishloq maktablari materiallari asosida) nomli ilmiy ishida [7; 45-b.] kasbiy barqarorlik fanlararo tushuncha sifatida tahlil qilinadi va bu tushuncha o'qituvchining haqiqiy va ehtimoliy faoliyat davomiyligini ifodalaydi. Muallif, funksional ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillarga asoslanib, kasbiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatuvchi uch guruh omillarni ajratib ko'rsatgan:

birinchisi, o'qituvchining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi kabi xususiyatlarini o'zida jipslashtirgan shaxsiy-demografik jarayon;

ikkinchisi, shaxsiy va professional, shu jumladan, ish tajribasi, o'qituvchi shaxsining pozitsiyasi, pedagogik mahorat darajasi;

uchinchisi, shaxsiy va atrof-muhit, bu erda shaxsning turmush tarzi, ularning qadriyat yo'nalishlari, o'qituvchilar tarkibidagi iqlim kabi omillar joylashtirilgan.

I.N.Dimuraning fikricha, bunday taqsimot turli sinflar, qatlamlar va ijtimoiy guruhlar orasidagi o'tishlar bilan bog'liq kasbiy faoliyatdagi o'zgarishlarni ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu shaxsning ijtimoiy va kasbiy jihatdan barqaror bo'lishi, hamda uning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira oladigan darajada bo'lishini anglatadi.

“Zamonaviy ta’lim sharoitida pedagog shaxsining kasbiy karyerasini shakllantirish” nomli monografiyasida L.T. Razikova[8] karyera tushunchasi, turlari va rivojlanish tarixi haqida batafsil to'xtalib o'tgan.

U o'z tadqiqot ishida karyeraning bir necha xillari haqida aytib o'tgan, ular:

tanlangan kasbda olg'a siljish;

yuqori maqomga erishish;

o'z qobiliyatlarini rivojlantirish;

kasbiy tajriba orttirish va hokazo.

Bundan tashqari, tadqiqotchining ishida kasbiy karyera qilish jadvalini ham ko'rishimiz mumkin, unga ko'ra (1-jadval)

1-jadval

Kasbiy karyera qilish bosqichlari (L.T. Razikova)

Karyera bosqichi	Yosh davri	Karyeraning qisqacha tavsifi	Motivatsiya (Mosloug ko'ra)
<i>Dastlabki</i>	25 yoshgacha	Ishga tayyorlanish, faoliyat sohasini tanlash	Xavfsizlik, ijtimoiy tan olish
<i>Rivojlanish</i>	30 yoshgacha	Ishni o'zgartirish, kasbiy mahoratni rivojlantirish	Ijtimoiy tan olish, mustaqillik
<i>Rag'batlantirish</i>	45 yoshgacha	Malaka oshirish	Ijtimoiy tan olish, o'zini anglash
<i>Tugatish</i>	60 yoshdan keyin	Pensiyaga tayyorgarlik, shogirtlar bilan ishlash	Saqlash, ijtimoiy tan olinishi
<i>Pensiya</i>	65 yoshdan keyin	Boshqa faoliyat bilan shug'ullanish	Faoliyatning yangi yo'nalishida o'zini namoyon qilishni izlash

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyera strategiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayon turli pedagogik yondashuvlar, amaliy faoliyat va innovatsion usullar orqali samarali tashkil etilmoqda hamda

kelajak mutaxassislarining kasbiy jihatdan yetuk bo‘lib shakllanishiga xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kasbiy karyerani samarali loyihalash va rivojlantirishda shaxsiy rejalashtirish, professional jamoalarda faol ishtirok etish, o‘z-o‘zini uzluksiz o‘rganish hamda konstruktiv fikr-mulohazalardan foydalanish muhim strategik omillar hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirish, pedagogik mahoratini takomillashtirish hamda zamonaviy ta’lim talablari asosida moslashuvchan va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga muhim omil hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish uchun, avvalo, aniq maqsad va vazifalarni belgilab olishi zarur. Karyerani loyihalash jarayoni individual rivojlanish rejasini ishlab chiqish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish hamda doimiy ravishda o‘z ustida ishlashni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari orqali o‘z faoliyatini tahlil qilish o‘qituvchining kasbiy o‘sishiga xizmat qiladi, 1-rasmga qarang.



1-rasm. Muvaffaqiyatli kasbiy rivojlanish strategiyasi

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi va muvaffaqiyatli karyera qurishi ko‘p jihatdan uning o‘z faoliyatiga ongli va tizimli yondasha olishiga bog‘liqdir. Kasbiy faoliyatni diagnostika qilish va aniq maqsad qo‘yish o‘qituvchiga o‘zining mavjud bilim va ko‘nikmalarini baholash, kuchli va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Shu asosda belgilangan maqsadlar kasbiy o‘sishning aniq yo‘nalishini belgilab beradi. Hamkasblar bilan hamkorlikda rivojlanish esa tajriba almashish, yangi pedagogik yondashuvlarni o‘rganish va ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirish o‘qituvchidan doimiy ravishda yangi bilimlarni egallashni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishni talab etadi. Pedagogik faoliyatni muntazam tahlil qilish va uni

optimallashtirish orqali o'qituvchi o'z ish uslublarini takomillashtirib boradi, dars samaradorligini oshiradi. Amaliy faoliyat asosida pedagogik mahoratni oshirish esa nazariy bilimlarni real ta'lim jarayonida qo'llash orqali mustahkamlanadi. Shu bilan birga, tahlil va baholash asosida o'zini takomillashtirish o'qituvchining kasbiy refleksiyasini rivojlantiradi va uning doimiy o'sishini ta'minlaydi.

XULOSA. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyera strategiyalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. U talabalar uchun o'z imkoniyatlarini baholash, kasbiy faoliyat yo'nalishlarini aniqlash hamda aniq karyera rejalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nazariy bilimlarni amaliy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish orqali kasbiy tajriba va strategik fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur jarayon bo'lajak o'qituvchilarning raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va yetuk mutaxassis sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/637/1313-son, 24.09.2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5847-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. – QHMMB, 06/22/60/0082-son, 29.01.2022 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF–73-son Farmon, 2025-yil 28-aprel. – Toshkent, 2025.
5. Dessler X. The Psychology of Careers. – New York: Harper & Brothers, - 362 p.
6. Дятлов В. А. Педагогическое мастерство и профессиональная деятельность учителя. – Москва: Педагогика, 2004. – 256 с.
7. Norqo'ziyeva M.A. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga kasbiy barqarorligini shakllantirish: ped. fan... (PhD) diss. – Jizzax, 2022 y. –117 b.
8. Razikova L.T. Zamonaviy ta'lim sharoitda pedagog shaxsining professional karyerasini shakllantirish. // Monografiya. – Toshkent. – 2022 y. – 112 b.